



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA DARSLARINI TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI

Allayarova Nargiza Narimanovna

Urganch davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15574161>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25- May 2025 yil

Ma'qullandi: 28-May 2025 yil

Nashr qilindi: 31-May 2025 yil

KEY WORDS

umumiy o'rta ta'lim, musiqa darsi, ta'lim texnologiyalari, estetik tarbiya, o'quvchi, pedagogik yondashuv, metodika, o'qituvchi mahorati, milliy qadriyatlar, musiqiy tarbiya

ABSTRACT

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa darslarini samarali tashkil etishning didaktik, pedagogik va metodik jihatlarini o'rganiladi. Musiqa ta'limining mazmuni, shakllari va uslublarini takomillashtirish orqali o'quvchilarda estetik didni, badiiy tafakkurni va milliy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, darslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, musiqiy asarlarni tanlash mezonlari va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos yondashuvlar haqida fikr yuritiladi. Maqolada musiqiy tarbiyaning maktabgacha va maktab davridagi uzviyligi hamda o'qituvchining kasbiy mahorati muhim omil sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonining har tomonlama takomillashtirilishi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, estetik tarbiyaning muhim bo'g'ini sifatida qaraladigan musiqa ta'limi o'quvchilarning badiiy didini, ijodiy tafakkurini, ruhiy-emotsional dunyosini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Musiqa darslari orqali yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, musiqiy tafakkur, madaniy savodxonlik hamda auditoriyaga yo'naltirilgan ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalar shakllanadi.

Musiqa ta'limi jarayonida ta'limning interaktiv shakllari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, integrativ yondashuvlar, differensiashtirilgan va individual ta'lim metodlari keng qo'llanilishi, o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, musiqa darslarini tashkil etish mexanizmlarini tizimli tahlil qilish, ularni ilmiy-nazariy asosda qayta ko'rib chiqish, ilg'or xorijiy va milliy tajribalar asosida takomillashtirish zamon talabi bo'lib bormoqda. Maqolada musiqa ta'limining metodik asoslari, o'qituvchining kasbiy pedagogik tayyorgarligi, ta'lim mazmunining didaktik tashkiloti, shuningdek, musiqa darslarining samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni qo'llashning amaliy yo'nalishlari o'rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa darslarini samarali tashkil etishning ilmiy asoslangan mexanizmlarini ishlab chiqish hamda ularning o'quvchilarda estetik va musiqiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyatini

Musiqa – bu inson qalbiga bevosita ta'sir etuvchi, ruhiy dunyosini boyituvchi, estetik hissiyotini tarbiyalovchi san'at turi bo'lib, uni o'rgatish jarayoni har doim yuksak mas'uliyat

va pedagogik mahoratni talab etadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa darslarini tashkil etish esa nafaqat o'quv jarayonining muhim bir qismi, balki jamiyatda estetik madaniyatli, badiiy didga ega, har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalashga xizmat qiluvchi asosiy omillardandir.

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida, jumladan, musiqa ta'limida ham yangicha yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarurati kundan-kunga ortib bormoqda. An'anaviy dars uslublariidan farqli ravishda, hozirgi ta'limda interaktiv metodlar, multimedia vositalaridan foydalanish, integratsiyalashgan mashg'ulotlar, talaba markazli yondashuv asosiy o'ringa chiqmoqda. Ayniqsa, musiqa fanining o'ziga xos xususiyatlari – emotsional ta'sirchanlik, ijodkorlikni rivojlantirish, musiqiy asar orqali estetik dunyoqarashni kengaytirish imkoniyatlari – uni boshqa fanlardan ajratib turadi. Musiqa darslarini samarali tashkil etishning muhim jihatlaridan biri – bu o'qituvchi shaxsining kasbiy kompetentligidir. Chunki aynan o'qituvchining musiqiy bilim darajasi, pedagogik mahorati, metodik yondashuvi darsning mazmun va sifati, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tajribali o'qituvchi har bir darsni musiqiy tahlil, tinglash, kuy yaratish, kuylash, asbobda ijro etish kabi turli faoliyat turlari bilan boyitadi. U nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, musiqiy dunyoqarash shakllantiruvchi shaxs sifatida faoliyat olib boradi.

Musiqa darslarining tashkiliy mexanizmlarida darsning tuzilmasi, vaqt taqsimoti, o'quv materiallari tanlovi, didaktik vositalarning qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Dars jarayonida nafaqat musiqiy asarlarni o'rganish, balki ularning tarbiyaviy ahamiyatini anglash, tarixiy-kulturologik kontekstda tahlil qilish orqali o'quvchilarda milliy g'urur, madaniy merosga hurmat hissi shakllanadi. Xususan, o'zbek xalq kuy-qo'shiqlari, maqom asarlari, mumtoz musiqiy namunalarning o'quvchilarga taqdim etilishi ularning milliy ongini mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish musiqa fanida ham yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Multimedia vositalari yordamida musiqiy asarlarni tinglash, notalarni vizual ko'rinishda tushunish, virtual asboblardan orqali ijro qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa darslarning interfaol bo'lishi, o'quvchining faolligi oshishiga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, musiqa ta'limi uzluksizlik prinsipiga asoslangan bo'lishi kerak. Ya'ni maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan davrda musiqiy tarbiya o'zaro bog'liq, bosqichma-bosqich rivojlanib borishi kerak. Umumiy o'rta ta'lim maktabidagi musiqa darslari bu tizimda o'ziga xos markaziy bo'g'in bo'lib, o'quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirishning asosiy bosqichini tashkil etadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa darslarini tashkil etish samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining tayyorgarligi, ta'lim texnologiyalarining o'rinli qo'llanilishi, milliy madaniy merosga asoslangan metodik yondashuvlar va zamonaviy pedagogik usullar bilan bevosita bog'liqdir. Musiqa darslari orqali bolalarning qalbiga estetik zavq, badiiy did, milliy qadriyat va insoniylik g'oyalarini singdirish imkoniyati mavjud bo'lib, bu esa ularni har tomonlama barkamol inson qilib voyaga yetkazish yo'lida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili:

Musiqa ta'limining ilmiy-nazariy asoslarini yoritishda ko'plab pedagog, san'atshunos, psixolog va metodistlarning asarlari tahlil qilinadi. Jumladan, taniqli pedagog olimlar A.V. Bakulev, V.A. Sukhomlinskiy, B.P. Yusov va N.A. Vetlugina tomonidan bolalarda musiqiy didni

shakllantirish, musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish hamda musiqa orqali estetik tarbiyani amalga oshirish bo'yicha muhim g'oyalar ilgari surilgan. N.A. Vetluginaning bolalarning musiqiy faoliyatini turli yosh davrlariga mos holda tashkil etish nazariyasi, o'quvchi-yoshlarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish g'oyalari hozirgi zamon musiqa ta'limi metodikasida ham dolzarbligini yo'qotmagan.

O'zbekiston olimlari orasida R. Abdullayeva, T. Xudoyberganova, N. Raxmatullaeva, A. Yo'ldosheva va Sh. Jo'rayevlarning izlanishlari musiqa ta'limining milliy mazmunini aniqlash, xalq ijodi asosida darslar tashkil etish, musiqiy kompetensiyalarni rivojlantirish borasida muhim metodik va nazariy asoslarni shakllantirgan. Jumladan, R. Abdullayeva o'z tadqiqotlarida o'quvchilarda musiqiy eshituv, ritm, intonatsiya, ohang va kuyga nisbatan estetik munosabatni shakllantirish masalalarini tahlil qilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqa darslarida milliy qadriyatlarga asoslangan yondashuv, xalq kuy-qo'shiqlari, maqom va mumtoz musiqiy namunalar orqali o'quvchilarni musiqiy meros bilan tanishtirish, ularning madaniy tafakkurini boyitishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, G. Sultonovanning o'zbek musiqa folklorini umumiy o'rta ta'lim tizimiga integratsiyalashga doir ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tajribalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, musiqa ta'limi rivojlangan mamlakatlarda (masalan, AQSh, Yaponiya, Germaniya, Finlyandiya) musiqiy kompetensiyalarni shakllantirishda integratsiyalashgan fanlararo yondashuvlar, loyiha asosida o'qitish, emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan dars metodikalari keng qo'llanilmoqda. Bu yondashuvlar o'quvchilarda nafaqat musiqa madaniyatini, balki shaxsiy rivojlanishni, o'z fikrini musiqiy ifoda vositalari orqali ifodalash qobiliyatini ham kuchaytiradi.

Shuningdek, musiqa fanini interfaol usullar orqali o'qitish, zamonaviy raqamli texnologiyalar, mobil ilovalar va virtual musiqiy platformalardan foydalanish bo'yicha ham zamonaviy adabiyotlarda (masalan, C. Hallam, S. Odena, L. Bresler asarlarida) samarali metodik tavsiyalar mavjud. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, musiqa ta'limi samaradorligini oshirish uchun ilmiy asoslangan, yosh xususiyatlariga mos, zamonaviy texnologiyalar va milliy an'analarni uyg'unlashtirgan yondashuvlar zarur. Milliy va xorijiy tajribalar integratsiyasi esa bu sohada yangicha innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Muhokama:

Musiqa – bu inson qalbining tarjimoni, yurakdagi tuyg'ularning ohangli ifodasidir. Ta'lim tizimida musiqa darslari orqali beriladigan bilim esa oddiy bilim emas, balki estetik tarbiya, milliy o'zlikni anglash, emotsional-intellektual rivojlanishning muhim vositasidir. O'rganilgan ilmiy-nazariy manbalar, amaliy tajribalar, o'qituvchilarning metodik faoliyatlari hamda o'quvchilarning musiqiy rivojlanish dinamikasini kuzatish asosida quyidagi muhim xulosalarga kelish mumkin.

Avvalo, musiqa darslarini tashkil etish mexanizmlari murakkab, ko'p bosqichli, o'zaro integratsiyalashgan jarayon bo'lib, bunda o'qituvchi, o'quvchi, metodik ta'minot va tashkiliy omillar o'zaro uzviy bog'liq. O'qituvchi musiqa fanini oddiy dars shaklida emas, balki madaniy-ma'naviy muloqot, didaktik va estetik tarbiya vositasi sifatida yondashmog'i lozim. Chunki aynan musiqa orqali o'quvchi o'zining ichki dunyosini anglaydi, hissiyotlarini boshqarishni o'rganadi, go'zallikni qadrlashga o'rgatiladi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat shuki, musiqa darslari o'quvchilarning faqat

eshitish va kuylash qobiliyatini emas, balki mantiqiy tafakkurini, fikrlash doirasini kengaytiradi. Musiqa tinglash orqali asardagi g'oya, mazmun, estetik obrazlar haqida mulohaza yuritish, musiqiy tahlil qilish kabi intellektual faoliyat elementlari ham rivojlanadi. Ayniqsa, milliy musiqiy meros – maqom, xalq qo'shiqlari, an'anaviy asarlar o'quvchilarda tarixiy xotirani, milliy o'zlikni anglash hissini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar – loyihaviy ta'lim, STEAM metodikasi, gamifikatsiya, raqamli texnologiyalarni tatbiq etish kabi usullar musiqa darslarining samaradorligini oshirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ammo bu texnologiyalarni har qanday sharoitda ham me'yorida, pedagogik maqsadga muvofiq qo'llash muhim. Chunki raqamli vositalar o'quvchini musiqiy asarning ruhidan uzoqlashtirmasligi, balki unga kirib borishda ko'makchi bo'lishi kerak.

Amaliy kuzatuvlar va intervyular natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar musiqa darslarida ko'proq interaktiv usullarni, sahnalashtirilgan chiqishlarni, musiqa asboblari orqali ijro qilishni, musiqa va tasviriy san'atni uyg'unlashtirgan topshiriqlarni xush ko'rishadi. Bu esa o'qituvchidan metodik yangilanish, ijodiy yondashuv va zamon bilan hamnafas bo'lishni talab etadi.

Biroq, amaldagi ta'lim tizimida musiqa faniga e'tibor yetarli darajada emasligi, dars soatlarining kamligi, o'qituvchilar tayyorgarligining bir xil emasligi, zamonaviy texnik vositalarning yetishmasligi kabi muammolar hamon saqlanib qolmoqda. Bu holat musiqa darslarining to'liq didaktik-maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etilishini qiyinlashtiradi.

Shunga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa darslarini tashkil etish mexanizmlarini isloh qilish uchun quyidagi chora-tadbirlar taklif etiladi:

Musiqa darslarining soat miqdorini ko'paytirish;

O'qituvchilar uchun maxsus metodik kurslar, seminar-treninglar tashkil etish;

Har bir maktabni musiqa asboblari va texnik vositalar bilan jihozlash;

Mahalliy va milliy musiqiy merosga asoslangan yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqish;

Musiqa fanini boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda o'qitish usullarini kengaytirish.

Musiqa darslarini tashkil etish mexanizmlarini samarali yo'lga qo'yish orqali biz o'quvchilarda nafaqat musiqiy bilim va ko'nikmalarni, balki hayotga bo'lgan estetik munosabatni, milliy o'zlikni, madaniy savodxonlikni va ijodiy tafakkurni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Bu esa jamiyat taraqqiyotida ongli, ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalashda muhim qadamlardan biridir

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva R. Maktabda musiqa ta'limi metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 200 b.
2. Xudoyberganova T. Musiqa madaniyati o'quvchilarning estetik didini shakllantirishda. – Toshkent: Fan, 2020. – 180 b.
3. Vetlugina N.A. Esteticheskoe vospitanie detey v protsesse muzykal'nogo obucheniya. – Moskva: Prosveshchenie, 1985. – 160 s.
4. Sultonova G. O'zbek xalq kuy-qo'shiqlari asosida musiqa darslarini tashkil etish metodikasi. – Toshkent: Musiqa, 2019. – 148 b.
5. Yusov B.P. Muzykal'noe obrazovanie v shkole: problemy i resheniya. – Moskva: Pedagogika, 1990. – 175 s.
6. Hallam S. The Power of Music: A research synthesis of the impact of actively making music

on the intellectual, social and personal development of children and young people. – London: Institute of Education, 2015. – 80 p.

7. Bresler L. International Handbook of Research in Arts Education. – Dordrecht: Springer, 2007. – 1624 p.

8. Raxmatullaeva N. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa fanini o'qitishning zamonaviy yondashuvlari. // Maktab va hayot, 2022, №3. – B. 27–32.

